

**Uglevodorodlar mavzusini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash yuzasidan metodik tavsiyalar**

**Tursunov Bunyod Hamdam o‘g‘li**

Kitob tumani ixtisoslashgan maktab-internati kimyo fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola kimyo fanidan “Uglevodorodlar” mavzuni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uni mavzuni o‘zlashtirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan. Ushbu usulda olib borilgan darsning samaradorligi o‘rganilgan.

**Tayanch so‘zlar:** “Tushunchalar tahlili” metodi, uglevodorodlar, “Venn diagrammasi”, ta’lim texnologiyasi

Hozirgi kunda xalq ta’limi tizimida o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so‘nggi yutuqlarni kimyo faniga tatbig‘ini chuqur o‘rganish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini dars jarayoniga keng joriy etish talab qilinadi. Bu esa kimyo fanidan Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalar, dasturlar va uslublarni tubdan yangilash lozimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil ishlash faolligini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun interfaol ta’lim metodlari hamda yangi avlod o‘quv adabiyotlaridan foydalanish, bilimlar uzatilishining yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishni ham taqozo etadi.

10-sinfda Organik kimyo fanida uglevodorodlar mavzularini o‘qitishda quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash tavsiya etiladi:

**“Tushunchalar tahlili” metodi** ikkita ustundan iborat bo‘lib, birinchi ustunda tushunchalar yoziladi, ikkinchi ustunda esa shu tushunchaga mos bo‘lgan tahlil o‘quvchilar tomonidan yoziladi. Ushbu metod mavzuga oid tushunchalarga ta’rif berish orqali tezkorlikni, aniqlikni shakllantiradi. Uni dars boshida uy vazifasini so‘rashda, mavzuni o‘zlashtirilganligini tekshirish maqsadida foydalanish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodini qo‘llashda turli bilim darajasiga ega o‘quvchilar guruhiqa qarab turlicha tuziladi.

<b>Tushuncha</b>	<b>Tahlili</b>
Alken	
Alkin	
Alkadiyen	
Olefin	
Izomer	
Ebonit	
Kauchuk	
Sis-izomer	
Trans-izomer	

“Tushunchalar tahlili” metodini to‘ldirilgan varianti

<b>Tushuncha</b>	<b>Tahlili</b>
Alken	To‘yingan uglevodorodlardan ikki vodorod atomiga kam bo‘lgan, shuning hisobiga bitta $\pi$ -bog‘ saqlaydigan uglevodorodlar.
Alkin	To‘yingan uglevodorodlardan to‘rtta vodorod atomiga kam bo‘lgan, shuning hisobiga ikkita $\pi$ -bog‘ saqlaydigan uglevodorodlar.


Alkadiyen	Molekulasida ikkita qo'sh bog' saqlaydigan uglevodorodlar.
Olefin	Lotincha olefiant – "moy" degan ma'noni anglatadi, tarixiy nom bo'lsa-da, kimyoviy adabiyotlarda keng qo'llanadi.
Izomer	Tarkibi, molekulyar massasi bir xil, lekin tuzilishi va xossalari bilan farq qiladigan moddalar.
Kauchuk	Kauchuk "koocho" so'zidan olingan bo'lib, u daraxtning ko'z yoshi ma'nosini bildiradi.
Ebonit	Kauchukni vulkanizatsiya qilish vaqtida oltingugurt miqdori 32 % gacha yetadigan qattiq modda.
Sis-izomer	Agar uglerod atomlaridagi vodorod atomlari qo'shbog' orqali o'tgan tekislikning bir tomonida joylashgan bo'lsa, sis-izomer deyiladi.
Trans-izomer	Agar uglerod atomlaridagi vodorod atomlari qo'shbog' orqali o'tgan tekislikning qarama-qarshi tomonida joylashgan bo'lsa, trans-izomer deyiladi.

### “Venn diagrammasi”

**Venn diagrammasi** - ikki yoki uch jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

To'yinmagan uglevodorodlar mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi, to'yinmagan uglevodorodlarning o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish imkonini beradi.

To'yinmagan uglevodorodlarning o'xshashlik va farqli tomonlari:



### Foydalanilgan dabiyotlar:

1. Баксанский О.Е. Проблемное обучение: обоснование и реализация // Наука и школа. – 2000.- № 1. - 19-25 betlar.
2. Omonov X.T va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic maxorat. Darslik. Toshkent, 2012.-192b.

3. Усмонова, Д. Т. (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ХИМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Conferencea*, 183-187.
4. Shomurotova, S. X. (2023). KIMYO FANIDAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA BILISH DARAJASINI OSHIRISH. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(17), 541-544.
5. Formanova, S. B. (2021). Application of Pedagogical Technologies to the Topics of the Metals Department. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5499-5509.

